

# PEDAGOGIKA

ILMIY-NAZARIY VA METODIK JURNAL

1/2024

**Bosh muharrir:**

Kirgizbayev Abdug'affor Karimjonovich

Maxmudov Abduxalim Xamidovich  
(bosh muharrir o'rinnbosari)

**Tahrir hay'ati:**

Djurayev Risbay  
Ibraimov Xolboy  
Abdullayeva Shaxzoda  
Djurayev Dusmurod  
Kamilova Nodira  
Quronov Muxammadjon  
Madjidova Dildora  
Mardonov Shukurullo  
Medetova Raushan  
Muslimov Narzulla  
Safarova Roxat  
Tojiboyeva Xilolaxon  
Xaydarov Mamat  
Xakimova Muxabbat  
Xodjayev Begzod

**Muassis** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Jurnalda pedagogika, psixologiya, o'qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o'zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-may-dagi 02-004-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan va unga O'zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabr-dagi 201/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

## O'QUVCHILARDA PAST O'ZLASHTIRISHNI KELTIRIB CHIQARUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

**Askarova Nargiza Abdivaliyevna**, Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b., PhD

**Annotatsiya.** Boshlang'ich sinflardagi past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish va uni korreksiya qilish pedagogik va yosh davrlari psixologiyasidagi dolzarb muammolardan biridir.

**Tayanch so'zlar:** past o'zlashtirish, aqliy rivojlanish, psixodiagnostika, psixokorreksiya, motivasiya, irsiyat, patologiya.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ НЕУСПЕВАЕМОСТЬ У ШКОЛЬНИКОВ

**Аскарова Наргиза Абдивалиевна**, и.о.доцента Ташкентского университета прикладных наук, PhD

**Аннотация.** Изучение психологических особенностей слабоусвояемых учащихся начальных классов и их коррекция являются одной из актуальных проблем педагогической и возрастной психологии.

**Ключевые слова:** низкая обучаемость, психическое развитие, психодиагностика, психокоррекция, мотивация, наследственность, патология.

### PSYCHOLOGICAL FACTORS CAUSING LOW ASSESSMENT IN SCHOOL STUDENTS

**Askarova Nargiza Abdivaliyevna**, associate professor of Tashkent university of applied sciences, PhD

**Abstract.** Studying the psychological characteristics of low-assimilation students in primary grades and correcting it is one of the urgent problems in pedagogical and youth psychology.

**Key words:** low learning, mental development, psychodiagnostics, psychocorrection, motivation, heredity, pathology.

**Kirish.** O'quchilarda past o'zlashtirishning psixologik sabablari juda xilma-xildir. Ular maktab qiyinchiliklarining turli xil tashqi ko'rinishlari bilan murakkab munosabatdadir. O'rganishdagi muayyan qiyinchiliklarning tashqi ko'rinishlari va ularning psixologik sabablari o'rtasida ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri va aniq muvofiqlik yo'qligini hisobga olish muhimdir, ya'ni bitta qiyinchilik turli sabablarga asoslanishi mumkin. Ammo qiyinchiliklarning turli ko'rinishlari uchun asos, qoida tariqasida, bir xil sababdir. Past o'zlashtirish deganda, xatti-harakatlar va ta'lif natijalari maktabning o'quv va didaktik talablariga javob bermaydigan holat tushuniladi. O'zlashtirishning pastligi o'quvchining o'qish va hisoblash ko'nikmalarining zaifligi, tahlil qilish, umumlashtirish kabi intellektual ko'nikmalarining sust bo'lishida ifodalanadi. Tizimli o'qishga erisha olmaslik pedagogik e'tiborsizlikka olib keladi, bu maktab talablariga zid bo'lgan shaxsnинг salbiy sifatlari majmuasi sifatida tushuniladi. Bu hodisa axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai-nazardan juda istalmagan va xavfli. Ta'limga beparvo bo'lgan bolalar ko'pincha maktabni tashlab, xavfli guruhlariiga qo'shilishadi. O'quv talablarini bajarmaslik, maktab voqeligining murakkab va ko'p qirrali hoidasi bo'lib, uni o'rganishga chuqur yondashuvlarni talab qiladi.

**Asosiy qism.** O'quvchilarni o'qitishning motivatsion sohasi turtkilar, ideallar, qadriyatlar yo'nalishi, maqsadlar, qiziqishlar, ehtiyojlar va, xususan, faoliyat va xulq-atvor motivlaridan tashkil topgandir. Operatsional soha o'ziga o'zi baho va o'zini nazorat qila bilish bilan birgalikda, o'quv harakatlari yo'llari va o'quv faoliyati usullari xarakteristikasi, shu bilan birgalikda, tafakkur operatsiyalari va aqliy faoliyat metodlari, shakllarini o'z ichiga oladi. O'qishda orqada qolishlik bolaning o'quv jarayoni bosqichlaridan birida o'zlashtira olmaslikda ifodalanuvchi maktab talablarini bajara olmaslik sifatida belgilanadi.

Ta'limda va aqliy rivojlanishda orqada qoluvchi bolalarning operatsional va motivatsion sohalarining o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. Ko'p sonli olimlarning psixologik tadqiqotlari yoshiga nisbatan rivojlanishda sezilarli darajada ortda qoluvchi bolalar va o'smirlar rivojlanishining individual variantlari borligini ko'rsatdi. Z.I.Kalmikova o'z tadqiqotlarida turg'un past o'zlashtiruvchi bolalarni o'rganib chiqdi. U tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'quvchilarning psixik rivojlanishini turli tuman variantlarini ulardagi u yoki bu bilish faoliyati komponentlari shakllanishining turli darajalari bilan bog'ladi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarda aqliy faoliyatning individual ko'rsatkichlari, zaruriy intellektual sifatlari va bilimlar zaxirasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rish mumkin [6].

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar haqida gapirganda, o'qishda orqada qoluvchi bolalardagi bilish jarayonlari xarakteristikasiga diqqat qaratish kerak. Bilish faoliyatining qaysi komponentlari past o'zlashtirishning asosiy sababi bo'lib chiqishiga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi: pedagogik qarovsizlar; intellektual sustlar; uquvchanligi past o'quvchilar. 1-toifadagi o'quvchilardagi orqada qolishning asosiy sababi – bilim zaxirasi yetarli bo'lmagan noqulay pedagogik sharoit, «minimal me'yor» talablariga javob bermaslikdir. 2-toifadagi o'quvchilarning past o'zlashtirishiga ijtimoiy va boshqa omillarning (ko'proq pedagogik) ta'sir qiladi, bular bolada bilish va intellektual faollikning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. 3-toifaga o'qishni xohlamaydigan va o'quv faoliyati usullarini egallamagan o'quvchilar kiradi [3].

Pedagogik qarovsizlik – bolaning bilish va aqlining intellektual sifatlari shakllanayotgan yosh bosqichida salbiy ijtimoiy-pedagogik sharoitning paydo bo'lishi natijasida kelib chiqadi. Gohida bunday o'quvchilar ichida yuqori o'zlashtiruvchi bolalarni uchratish mumkin. Bunga misol qilib, G.P.Antonovning o'quvchilar guruhi (3-8 sinfgacha) o'tkazgan tadqiqot natijalarini ko'rish mumkin. Tadqiqotda keltirilishicha, 6-7 sınıf o'quvchilari orasida past baho oluvchi o'quvchilar (2 bahogacha) uchraganini, lekin ular boshlang'ich sınıf davrlarida intellektual rivojlanishi juda yuqori bo'lganini guvohi bo'lish mumkin. Bunday bolalar rivojlanishining chuqur tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning imkoniyatlari va ularga qo'yiladigan talablari bir-biriga o'zaro mos kelmasligi sababli o'zlashtirishlari juda tez pasaygan. Boshqalardan farqli o'laroq bunday bolalar boshlang'ich sınıf davrlarida o'quv topshiriqlarini qiyinchiliksiz o'zlashtirishgan, ularni maqtashgan, boshqalarga namuna qilib ko'rsatilgani uchun o'ziga bo'lgan baho ko'tarilib ketishiga sabab bo'lgan. Ta'lim jarayonini juda osonligi oqibatida o'quvchilar qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rganmaganlar, sodda topshiriqlar ularning bilim olish motivatsiyalarini rag'batlantirmagan va intellektual ishga qobiliyatlarini shakllantirmagan [1].

Intellekti sust bolalar. Albatta, intellekti sust bolalarni past o'zlashtiruvchi deb aytib bo'lmaydi, aksi ham bo'lishi mumkin, masalan, ular orasida aqliy jihatdan qobiliyatli o'quvchilarni ham uchratish mumkin. L.V.Orlova past o'zlashtiruvchi va intellekti sust bolalar muammolari qisman bir-biriga mos deb hisoblaydi. Intellektual sustlikni faollikning yetishmasligi deb bo'lmaydi. U o'zining mazmunan tavsifiga ega va, shu jumladan, reproduktiv faoliyatga moyilliigi bilan, «tashqi» umumlashtirish, aylanma yo'llarni ishlatish, mantiqiy qiyinchiliklarni xotiraga bo'lgan o'ta katta bosim orqali kompensatsiya qilish harakatlari bilan ifodalanadi [4].

Intellekti sust bolalar 2 guruhgaga ajraladi: 1) «Operatsional-texnik» intellektual sustlik, buning zamirida: topshiriqni mustaqil bajara olmaslik, o'quv ishlarini tashkillashtirish ko'nikmasini shakllanmaganligi (darsliklar bilan ishlash, masalaga kerakli savolni qo'ya olmaslik va yecha olmaslik); bilimdag'i kamchilik va uni yangi materialda qo'llay bilmasligini qo'rish mumkin. 2) «Motivatsion» intellektual sustlik, bunday bolalar, ayniqsa, o'zlar uchun qiziqarli bo'lgan ishni hal qilishda oson yo'l bilan maqsadga erishishni o'laydilar, ko'p fikrlamasdan tezroq yaxshi natijalarga erishishga harakat qiladilar, intellektual zo'riqish vaqtida noqulay hissiy holatlari bilan xarakterlanadilar. Bunday intellektual sustlikning sabablaridan biri – keragidan ortiq yuzaki, ko'ngilochar axborotlar, ularni qabul qilishda bolaning subyektiv – sust rolidir.

Aqlning yuzakiligi – tashqi, ayrim belgilarni ajratishda, ular o'tasidagi tasodifiy aloqani o'matilishiда namoyon bo'ladi, bu esa, umumlashtirishning past darajasini ifodalaydi. Aqlning sayozligi o'quvchi uchun matn va reja tuzishda, matnni qisqacha gapirib berishda qiyinchilik tug'diradi. U gapirganida asosiyi qolib, ikkinchi darajadagi detallarga ahamiyat beradi.

Aqlning inertligi – tasodifiy vaziyatlarga javob berolmay «qotib qolish»ida, bir usuldan keyingisiga o'tishdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishida, biron-bir fikrga kelishda odatga aylangan bir qolipdan chiqib ketolmasligida ko'rindi. Bunday o'quvchilar intellektual zo'riqish talab qilmaydigan, o'zgarmaydigan, bir qolipdag'i harakatlarni bajarishni yoqtirishadi.

Aqlning beqarorligi – mo'ljalni asoslanmagan tarzda o'zgartirish, tasodifiy belgilarni, assotsiatsiyalar ta'siri ostida bitta harakatlar tizimidan boshqasiga o'tish. Bu jarayon zamirida shakllangan aloqalarning tormozlanishi yotishi yoki toliqish ta'sirida bo'lishi mumkin. O'quvchida shunday holat bo'ladiki, o'zi bilganlarini yodidan chiqaradi va o'ziga tanish bo'lgan qoidalarga mo'ljal olishdan to'xtaydi. Bu holat ikki yoki uch yo'llari mavjud masalani yechishda (masalan, obyektning kattaligi va shakl jihatidan) to'g'ri yechilgan masala noto'g'riga aylanishini ko'rish mumkin [2].

Aqlning taqlidchanligi – uquvchanligi past o'quvchilarini ta'riflaganda N.A.Menchinskaya shuni ta'kidlaydiki, ushbu o'quvchilar tengqurlariga nisbatan past natijalarga erishishligini sababi ularni tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan vositali xotirani ishlata bilmasligidadir, u esa, intuitiv-amaliy va so'z – mantiqiy tafakkurning rivojlanganlik darajasi o'tasidagi nomuvofiqlik bilan xarakterlanadi. Uquvchanligi past o'quvchilarning alohida e'tiborli tomoni shundaki, ular mavhum yoki konkret tafakkur qilişadi, lekin bir fikrash pog'onasidan boshqasiga o'tish ularda katta qiyinchilik uyg'otadi.

Yuqorida ko'rsatilgan qiyinchiliklar bilim olishda qiyinchilikka uchrayotgan bolalardagi umumiyl bilish faoliigli tonusining pasayishi oqibatidir va o'quvchilarning motivatsion sohasi bilan uzviy bog'liqidir.

N.A.Menchinskaya o'tkazgan tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirmovchi o'quvchilar diqqati va xotirasida quiyi ko'rsatkichlar olinishi bu psixik jarayonlarida patologik o'zgarishlarning natijasi emas, balki to'g'ri ishslash odatlarining mavjud emasligi bilan bog'liqidir. N.A.Menchinskaya o'zlashtirmovchi o'quvchilar tipologiyasini ishlab chiqishda, birinchedan, tafakkur faoliyatni xususiyatlari, ikkinchedan, shaxsnинг yo'nalishiga e'tibor berdi. Muallif o'quv faoliyatini tashkil qila olish ko'nikmasini barcha o'zlashtirmovchi o'quvchilarga xos bo'lgani uchun tiplarga ajratish mezoni sifatida qaraydi [7].

O'tkazilgan tadqiqotlarda, noqulay hayot sharoitlari tasiridan tashqari, o'qishdagi umumiyl va chuqr qoloqliklarni paydo bo'lishining uchta sababi ko'rsatilgan: yomon tayyorgarlik va bilimdag'i sezilarli nuqsonlar; o'qishga salbiy munosabatda bo'lgan

---

o'quvchilar; tashkil etilgan mehnatga nisbatan ko'nikmaning yo'qligi, umumiy rivojlanishning yetarli bo'limgan darajasi [5].

**Xulosa.** Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ta'lim jarayonida muvaffaqiyatsizliklari sababli, ko'pincha tushkin kayfiyatda bo'ladilar. Psixokorreksion va shakllantiruvchi ishlarni, avvalo, ularni emotsiyol holatini yaxshilashdan boshlash zarur bo'ladi. Psixik rivojlanishdagi nomuvofiqlik, ya'ni motivatsion va operatsional soha o'rtasidagi yetishmovchilikni korreksiyalash, xulq-atvordagi buzilishlarni bartaraf etish, bilim olishga uquvchanlik va bilish jarayonlari rivojlantirish, o'quv operatsiyalari, o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, irodaviy faollikni hamda o'ziga-o'zi adekvat baho berishni oshirish muhimdir. Bu jarayonda, ayniqsa, o'quvchilarning ota-onalari, yaqinlari, pedagoglar hamkorlikda ijobjiy motivatsiya beruvchi muhitda ish olib borishi, ushbu muammoni bartaraf etishda muhim omillardan hisoblanadi. O'quvchilarda past o'zlashtirish sabablarini erta aniqlash, toifalarga ajratish, psixodiagnostik, psixokorreksion va shakllantiruvchi chora-tadbirlarni izchillikda olib borish, ayniqsa, pedagoglar, o'quvchining ota-onasi, oila a'zolarini jalb qilish ishning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Yuqorida biz keltirgan o'zlashtirmovchi o'quvchilarning tiplarini bilish o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishda katta yordam beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Безруких М.М., Ефимова С.П. Знаете ли вы своего ученика? - М.: Просвещение, 1984. -175 с.
2. Блонский П.П. Школьная успеваемость. - М.: Просвещение, 2001. - 423 с.
3. Венгер А.Л., Цукерман А.Г. Психологическое обследование младших школьников. - М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2004. - 534 с.
4. Гельмонт А.М. О причинах неуспеваемости и путях ее преодоления. - М.: Просвещение, 2004.
5. Нишанова З.Т., Аскарова Н.А., Расулова Ф.Ф., Байкунусова Г.Ю. Ўкувчиларда паст ўзлаштириш диагностикаси ва психокоррекцияси: Услубий қўлланма. - Т.: ТДПУ, 2013.
6. Менчинская Н.А. Психологические проблемы неуспеваемости школьников. - М.: Педагогика, 1971. - 272 с.

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA**
**Ибраимов Х.И.**

Трансформация педагогического образования в условиях развития цифровых технологий.....3

**Safarova R.G.**

Hamkorlikdagi pedagogik jarayonda bo'lajak o'qituvchilarini shaxsiy-kasbiy rivojlantirish imkoniyatlari.....9

**Xakimova M.F.**

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish yo'llari.....14

**Mardonov Sk.**

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi va uning faoliyatiga qo'yildigan talablar haqida.....19

**Ergashev Sh.T.**

Uzluksiz kasbyi ta'lim tizimini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari.....22

**Amonov A.N.**

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash dasturlari va shakllari samaradorligini monitoring qilish tehnologiyasi.....26

**Галушенко И.Г.**

Значение педагогических идей Арнольда Шёнберга в современном музыкальном образовании (к 150-летию со дня рождения австрийского композитора).....29

**Nishanova Z.T.**

Kichik maktabs yoshidagi o'quvchilarda tafakkur operatsiyalarini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar.....34

**Mirqosimova M.**

Talabalarning kasbyi rivojida refleksiv ta'limgan tekhnologiyalarining ahamiyati.....37

**Mamarajabova Z.N.**

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning adabiy tayorlarigini tashkil etishning ijobiy samarası.....43

**Djurayev D.U.**

Ayollar mehnat migratsiyasi jarayonidagi qiyinchiliklarning oldini olishda pedagogik va psixologik ko'mak xususiyatlari.....47

**Ibraymov A.Ye.**

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari makasini oshirishda masofaviy va aralash shakllari: mavjud tajribalar va samaradorlik.....51

**Murotazayeva M.M.**

Talaba-yoshlarda ekopedagogik kompetentligini rivojlantirishda raqamli transformatsiyalarining o'rni.....55

**Sadikova Sh.A.**

Maktabgacha ta'limgan yo'naliishi talabalarini ta'limgan-tarbiyaviy jarayonlarda kasbyi tayyorlash.....59

**Tilegenov A.**

Folklorshunoslik asosida yoshlar ongida milliy g'oyani shakllantirish yo'llari.....63

**Babayeva D.R., Jaloliddinova M.**

Maktabgacha yoshdag'i bolalarning axloqiy tarbiyasida kattalarning o'rni.....69

**Ibragimova F.X.**

Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv (bilish) faoliygini oshirish pedagogik va psixologik muammo sifatida.....73

**Пирматов С.**

Значение визуальной культуры в процессе разработки логотипа.....78

**To'xtayev N.Ya.**

Bo'lajak ofitserslerda kasbyi ta'limgan tizimini rivojlantirish mexanizmlari.....83

**Kuchkarov B.T.**

Kursantlarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....87

**Mamarajabov B.B.**

Bo'lajak tarjimonlarni asliyat va tarjima mazmunlaridagi muqobilligini ta'minlashga o'rgatish.....91

**Abidova N.Q.**

Autizm spektori bolalarni tarbiyalanayotgan oiladagi muammo va yechim.....95

**Arslanova M.M.**

Inkluyuz ta'limgan sharoitida bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbyi-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari.....99

**Malkova X.I.**

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni metodik kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari.....103

**Topilov N.X., Saydalievya F.O.**

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga badiiy ta'limgan

berishning kreativ texnologiyalari.....107

**Ruzmetova X.A.**

Boshlang'ich ta'limganda shaxsini rivojlantirishning samarali yo'llari.....112

**Хасанова Ш.Т.**

Pedagogicheskie aspekty razvitiya tvorcheskikh sposobnostey v processe podgotovki budushchego uchitelya k professionalnoy deyatel'nosti.....116

**Mallayev R.Q.**

Pedagoglarning kasbyi kompetentligiga: zamonaviy yondashuvlar va uning strukturası.....121

**Tavakalov A.A.**

Chaqiriqqa harbiy ta'limgan yo'naliishi talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhiha tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari.....125

**Анцыпирович О.Н., Каранец Е.М., Шукурллахонова Ш.М.**

Поготовка кадров для системы дошкольного образования: опыт и перспективы взаимодействия БГПУ и ТГПУ.....129

**Норкулова Н.**

Значение межличностных взаимоотношений в формировании мотива аффилиации среди молодежи Узбекистана.....134

**Saydjanov F.M.**

Axborot-psixologik xurujlarning ta'sir prinsiplari va ularga ilmiy yondashuv mexanizmlari.....138

**Ganiyev D.C.**

Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxassislarini oilaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlari.....144

**Xalmatov L.N.**

Uzluksiz ta'limgan yosh avlodni erkin va mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini tarkib toptirishda oila pedagogikasining o'rni.....148

**Tuychiyeva S.M.**

Bo'lajak mutaxassislarda kasbyi mobillikni shakllantirishning psixologik juhatlari.....154

**Dusmukamedova Sh.A.**

O'smirlik davrida o'z-o'ziga nisbatan ishonch va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning o'zaro aloqadorlik xususiyatlari.....158

**Нажмиддинова Г.О.**

Воспитание и обучение детей-билингвов посредством развития их речи.....162

**Askarov N.A.**

O'quvchilarda past o'zlashtirishni keltirib chiqaruvchi psixologik omillari.....166

**Абсаламов Т.Т.**

Повышение эффективности использования искусственного интеллекта в электронной образовательной среде.....170

**Shermukamedova D.R.**

Ta'limgani raqamlashtirish sharoitida talabalarning individual ishlashini tashkil etishning nazariy va uslubiy asosları.....174

**Irgashova M.A., Jo'raxonova S.A.**

Yuksalik axloqiy-ma'naviy sifatlariga ega o'qituvchi – hozirgi zamон talabi.....179

**Madaliyev R.I.**

Talaba-yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasidan foydalansish.....183

**АЗимова Г.М.**

Развитие профессиональных компетенций у будущих учителей в условиях цифрового образования.....187

**G'aniyeva A.T.**

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish yo'naliishlari.....190

**Raximova G.A.**

Olada nizoli vaziyatlarni yosh inqiroziga bog'liqligining ijtimoiy-psixologik sabablar.....194

**Akbaraliyeva A.A.**

Bo'lajak psixolog-mutaxassislarda kasbyi identifikasiya shakllanishining psixologik omillari.....196

**Muhiddinova D.U.**

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda og'zaki nutqni shakllantirish.....201

**Isoqjonova D.M.**

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar so'zlashuv nutqini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolini.....207

**Niyazakhunova N.B.**

Maxsus maktab-internatda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy maishiy hayotga yo'naltirishning ijobiy samarasasi.....211